

**Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida didaktik o'yinlarning  
o'quvchilar ijodiy fikrlashi rivojlanishidagi o'rni**

**Otaboyeva Xusniya Sharofiddinovna**

Urganch davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida didaktik o'yinlar texnologiyasi va uning darslardagi ahamiyati xususida so'z yuritilgan. Boshlang'ich sinflar amaliyotida qo'llaniladigan didaktik o'yinlardan ham misollar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar.** Bolalar, o'yin, faoliyat, bilim, tarbiya, ijodiy o'yin, qoidali o'yin, ruhiyat, ong, amaliyot, aqliy rivojlanish.

**Роль дидактических игр в развитии творческого мышления учащихся  
на уроках читательской грамотности в начальной школе.**

**Отабоева Хусния Шарофиддиновна**

Ургенчский государственный педагогический институт

Учащийся 3 ступени начального образования

**Абстрактный.** В данной статье рассматривается технология дидактических игр и ее значение на занятиях начальной языковой и читательской грамотностью. Также приведены примеры дидактических игр, используемых в практике начальных классов.

**Ключевые слова.** Дети, игра, деятельность, познание, обучение, творческая игра, игра с правилами, психика, сознание, практика, психическое развитие.

**Abstract.** This article discusses the technology of didactic games and its importance in the classes of primary language and reading literacy. Examples of didactic games used in the practice of primary classes are also given.

**Keywords.** Children, game, activity, knowledge, education, creative game, game with rules, psyche, consciousness, practice, mental development.

Barchamizki ma'lumki, yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida ma'nan sog'lom qilib tarbiyalashda, shaxsni shakllantirishda badiiy adabiyotning o'rni beqiyosdir. O'sib kelayotgan avlodning bilimli va malakali mutaxassis bo'lishi bilan birga sog'lom ma'naviyat egasi bo'lishi ham davr talabidir. Sinfdag'i har bir o'quvchi o'z

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

### VOLUME-4, ISSUE-6

tabiat, iqtidori, qobiliyati, qiziqishlari va imkoniyatlari ham betakror yaratiqdir. Shuning uchun darslarni didaktik o‘yin texnologiyalari asosida tashkillashtirish o‘quvchilar bilim olishga qiziqishi va ishtiyoqini kuchaytiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilar ma’naviyatini rivojlantirish, o‘stirishda o‘qish darslarining, ya’ni, boshlang‘ich adabiy ta’limning o‘rni beqiyos. O‘qish kitobidagi asarlarni to‘g‘ri idrok etishga yo‘naltirilgan o‘quvchi mustaqil ishlashga, uqib o‘qishga, o‘zgalarning fikrini ilg‘ashga, o‘zi va boshqalarning tuyg‘ular olamini kuzatishga, o‘zgani tuyishga o‘rgana boradi. Olamni, odamni va o‘zligini kashf qiladi

“Dunyo tarbiyashunoslik ilmida ham bolalarning yetakchi faoliyati o‘yin ekan va o‘yinlarning maktabgacha yoshdagi davrda muhim sanalishi har jihatdan asoslab berilgan. O‘yinlarning didaktik shakli boshlang‘ich ta’lim amaliyotida ham o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Didaktik o‘yinlar jarayoni zamirida o‘quvchilarga ta’lim berish, olam va odam sirlarini anglatish, mustaqil mulohaza yuritishga undash hamda shular asnosida ma’naviy to‘kislik sari yuz burgan shaxsni shakllantirish maqsadi yotadi. Boshlang‘ich sinflar ta’lim jarayonini o‘yinlar ko‘magida tashkil etish masalasi ham pedagogika ilmida alohida o‘rganilgan”. [1; 107-bet]. Shunday ekan, darslarni qiziqarli didaktik o‘yinlar, yangicha usul va metodikalar orqali o‘tish bugungi kunning talabidir. O‘quvchilar ham bunday darslarni zo‘r qiziqish va ishtiyoq bilan o‘rganib,

O‘yinlar bolalarning jismoniy, aqliy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiyasida, ularda mustaqil fikrlash ko‘nikmasining shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi. O‘yinlar boshlang‘ich sinflar ta’limida amalga oshiriladigan mashg‘ulotlar, darslar, ularning kundalik hayotidagi kuzatishlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ta’limiy-tarbiyaviy ahamiyat ham kasb etadi. Didaktik adabiyotlarda o‘yinlarni ikki katta guruhga bo‘linishi ta’kidlanadi: ijodiy va qoidali o‘yinlar [1; 108-bet]

“Ijodiy o‘yinlarning mazmuni bolalarning o‘zлари o‘ylab topadilar va ularda o‘z taassurotlari, borliq haqidagi tushunchalari, bilimlari hamda unga munosabatlarini aks ettiradilar. Ularda bolalarning erkinligi, mustaqilligi, tashkilotchiligi va ijodkorlik qobiliyatları to‘laligicha namoyon bo‘ladi. Bunday o‘yinlar, asosan, bolalarning maktabgacha yoshdagi faoliyatiga xosdir.

Qoidali o‘yinlar esa kattalar tomonidan yaratiladi va bolalar hayotiga tatbiq etiladi. Bunday o‘yinlar o‘z mazmuni va qoidalarining sodda yoki murakkabligi darajasiga asoslangan holda bolalarning yoshlariga qarab taqdim etiladi. Kattalar tomonidan belgilab qo‘yilgan qoidalar asosidagi o‘yinlarning ko‘pchiliginini xalq o‘yinlari tashkil etadi. Qoidali o‘yinlarning bir qismi didaktik ahamiyat kasb etadi va ular boshlang‘ich sinflar amaliyotida alohida o‘rinni egallaydi”[1; 108-bet]

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

### VOLUME-4, ISSUE-6

Boshlang‘ich sinflar adabiy ta’limida o‘quvchilarning o‘z ma’naviy kamolotlarini ta’minlashda bevosita ishtirok etishlari, ularning ijodiy fikrlash bilimlarini mustaqil egallash ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, mavjud bilim, ko‘nikma, malakalarni yangi vaziyatlarda qo‘llay bilishlarida syujetli-rolli o‘yinlar ham muhim sanaladi.[1; 111-bet]. Shu kabi o‘yinlar o‘quvchilarning faol, chaqqon, epchil va ziyrak bo‘lishga undaydi.

“Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarining adabiy tafakkurini o‘sirishga yo‘naltirilgan navbatdagi navbatdagi o‘yin “Uyushma” deb nomlanadi. Bu o‘yining maqsadi sabzavotlarni har xil belgilari bo‘yicha saralashga yo‘naltirish orqali o‘quvchilar bilimini oshirish, tafakkur mustaqilligini ta’minlashdan iborat. Sabzavotlar yoki ularning rangli suratlari mazkur o‘yining ko‘rgazmali material bo‘la oladi. O‘yin quyidagi tartibda amalga oshiriladi: o‘quvchilarga har xil sabzavotlar yoki ularning rangli rasmlari tarqatiladi. Dastlab, o‘qituvchining o‘zi boshlovchi bo‘ladi. U pomidorni ko‘rsatadi va uning sharbati (suvi) borligini aytadi. pomidor o‘z jamoasini “tuzadi”. ya’ni uning safiga sharbati bo‘lgan barcha sabzavoti bor o‘quvchilar kelib qo‘shiladilar. har bir qo‘shilgan o‘quvchi qo‘lidagi sabzavotning nomini va uning xususiyatlarini aytadi: menda tarvuz bor, uning ham suvi-sharbati bor; menda qovoq bor. Qovoqning ham sharbati bor. U juda foydali va hokazo.

Keyingi navbatda boshqa bir o‘quvchi boshlovchilik qiladi: “Menda lavlagi bor. U qizil”. Endi o‘quvchilar qo‘llaridagi qizil sabzavotlar bilan alohida jamoa hosil qiladilar va o‘zlaridagi sabzavotning nomi va rangini aytib, uyushmaga qo‘shiladilar. Navbatdagi boshlovchi: “Menda kartoshka bor. Uni ovqatga soladilar”, - deydi. Kimning qo‘lida ovqatga ishlatiladigan sabzavotlar bo‘lsa, bu uyushmaga sabzavotining nomi va u ovqatga solinishini aytib qo‘shilaveradi. Boshqa uyushmalar ham “u shirin”, “u achchiq”, “uni pishirmasdan yesa bo‘ladi”, “uni albatta pishirib yeyish kerak” singari belgilari bilan sabzavotlarni ajratadilar va hokazo. Bu o‘yin o‘quvchilarning sabzavotlar va ularning xususiyatlari haqidagi bilimlarini mustahkamlaydi, mustaqil tafakkuri bilan birga sinchkovligini orttiradi. Sabzavotlarni mevalar bilan almashtirib yangi bir o‘yin yaratish mumkin. [1;114-bet]. Ushbu didaktik o‘yinlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dunyoqarashini kengaytirish, bilimlarini mustahkamlash, ijodiy tafakkurini shakllantirish, tasavvurini kengaytirishga yo‘naltirilgan didaktik o‘yinlardan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytish joizki, o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi darslarida didaktik o‘yinlardan foydalanishda ijodiy izlanishi, tafakkur va faoliyatidagi mustaqilligi, mantiqiy mulohaza yuritish qobiliyatlarini rivojlantirishda, qo‘shimcha bilim olishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishda muhim rol o‘ynaydi. Ta’lim

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

### VOLUME-4, ISSUE-6

jarayonidagi muammoli vaziyatlarda o‘zaro hamjihatlikda ishlash qobiliyatlari ham rivojlanib boradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Q.Husanboyeva, M.Hazratqulov, Sh.Jamoldinova, “Boshlang‘ich sinflarda adabiyot o‘qitish metodikasi” “Innovatsiya-zoyo” Toshkent – 2020, 377 bet
2. O.Turakulova, “Adabiy ta’limda o‘quvchilar mutolaa madaniyatini rivojlantirish texnologiyasi” “Book trade” Toshkent– 2023, 101 bet
3. D.Muminova “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi” Namangan-2019
4. Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova, “Adabiyot o‘qitish metodikasi” Toshkent–2018, 351 bet